

## **ATMOSFERANI MUHOFAZA QILISH MASALALARI**

**Nurlanov.A S.,**

*NDPI Geografiya o‘qitish metodikasi kafedrasida*

**Seydullaev A.M.**

*NDPI Geografiya o‘qitish metodikasi kafedrasida*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15169438>

Atmosfera Yer yuzasining himoya qatlami hisoblanib, u barcha tirik organizmlarni zararli kosmik nurlardan, samodan tushadigan meteoridlarning zarrachalaridan himoya qilib turadi. Sayyoramizdagi issiqlikni saqlaydi. Agar havo qobig‘i bo‘lmaganida, yer yuzasida kunduzi harorat +120 va kechasi esa -180°C harorat kuzatilgan bo‘lar edi.. Atmosfera gaz tarkibi deyarli doimiy bo‘ladi: asosan azot-78,09%, kislorod-20,95%, argon-0,93%, karbonad anhidrid-0,03% mavjud.

Atmosferada sodir bo‘ladigan fizik, kimyoviy va biologik o‘zgarishlar tirik organizmlarga ta’sir ko‘rsatadi. So‘nggi yillarda inson ta’sirining kuchayishi natijasida gazlar muvozanatining o‘zgarishi kuzatilmoqda. Atmosferadagi gazlar doimiy miqdorining o‘zgarishi sayyoramiz uchun salbiy oqibatlariga olib kelishi aniqlangan.

Atmosferaning ifloslanishi deganda havoga zaharli birikmalarning qo‘shilishi natijasida uning fizik va kimyoviy xususiyatlarining o‘zgarishi tushuniladi. Insoniyatga qolaversa, barcha jonivorlarga hayot baxsh etadigan atmosfera havosini hozir ikki manba: tabiiy omillar va inson faoliyatining mahsuli- antropogen (sun‘iy) manba ifloslantiradi.

Atmosferaning sun‘iy ifloslanishiga: avtomobil transporti birinchi o‘rinni (40%), energetika sanoati ikkinchi o‘rinni (20%), korxonalar va tashkilot ishlab chiqarishi uchinchi o‘rinni (14%), qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi, maishiy kommunal xo‘jaligi va boshqalar zimmasiga ifloslanishning (26%) to‘g‘ri keladi.

Atmosfera havosini asosan, ifloslantiruvchi manbalar bugungi kunda tobora rivojlanib borayotgan insonning sanoat ishlab chiqarishidagi va avtotransportlarning rivojlanishidir. Havoga ko‘p miqdorda karbon kislota, uglevodorodlarning oksidlari, sulfid anhidrid va boshqa moddalar chiqarilib, ular tabiiy muhitga va odamlarga juda kata zarar yetkazmoqda. Bu holat ayniqsa, yirik shaharlarda ko‘zga tashlanadi.

Atmosfera havosini ifloslanishi muammosi barcha insoniyatni tashvishlantirmoqda. Avtotransport havoni ifloslanishida birinchi o‘rinni egallaydi. AQSHning atmosfera havosi 60% avtomobillardan chiqadigan gazlar bilan ifloslanadi. Nyu-York, Los-Anjeles, Tokio, Toshkent, Samarqand kabi yirik shaharlarda havoning ifloslanishi darajasi 80-90% ni tashkil etadi. Avtomobildan

# “O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI”

Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi

chiqadigan gazlar tarkibida zararli moddalar mavjud. Atrof muhitga is gazi oltingugurt va azot birikmalari bilan birga 3,4 benzapiren va qo‘rg‘oshin kabi kantserogen moddalar ham ajralib chiqadi. Dunyo bo‘yicha bugungi kunda 500 mln dan ortiq avtomobillar harakatlanadi.

Radioaktiv ifloslanishning manbalari atom va vodorod bombalarini sinovdan o‘tkazish bo‘lsa bundan tashqari radioaktiv ifloslanish yadro qurollarini tayyorlashda elektrostansiyalarining atom reaktori va radiaktiv chiqindilardan atmosferaga tarqaladi. Birgina reaktiv samolyot 8 soat ichida Amerikada Yevropaga uchib o‘tganda 50-100 tonnagacha kislorod yoqadi, ya‘ni buni 100 ming gektar o‘rmonzor bir kunda chiqarib beradi, bir kosmik kemaning fazoga chiqishi uchun 16 km radiusida ozon qatlami yemiriladi.

Havoning kuchli ifloslanishi insonlar sog‘ligiga, qolaversa barcha jonzotlarga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bir kishi sutka davomida o‘rtacha 25 kg havo bilan nafas oladi. Havo tarkibidagi zararli chang, qurumlar, zararli gazlar inson organizmida to‘planaveradi. Oqibatda teri va ko‘z kasalliklari, jigar serrozi, qonbosimining ortishi, surunkali bronxit, nafas qisish va o‘pka raki kabi kasalliklarning ko‘payishiga sabab bo‘ladi. Bolalar o‘rtasida umumiy kasallanishning ortishi qayd qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi hududida ham atmosfera havosiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadigan 4 milliondan ortiq transport vositalari va 12700 dan ortiq yirik qo‘zg‘almas manbalar mavjud bo‘lib, ulardan bir yilda o‘rtacha 320 ming tonnadan ortiq zararli moddalar atmosferaga chiqarilmoqda. Shundan 212,4 ming tonna qo‘zg‘almas manbalarga, 108,2 ming tonna qo‘zg‘aluvchan manbalarga to‘g‘ri keladi. Jumladan: Muborak gazni qayta ishlash zavodi (55 ming t), Muborak gaz konlari unitar shu‘ba korxonasi (5 ming t), Sho‘rtan neft gaz unitar shu‘ba korxonasi (70 ming t), Sho‘rtan gaz kimyo majmuasi (15 ming t) bu obyektlardan atmosfera havosiga chiqadigan zaharli moddalar Qashqadaryo viloyati bo‘yicha 65% ni tashkil etadi.

O‘zbekistonda atmosferaga tashlanadigan zararli moddalar miqdori (kg/km<sup>2</sup> sut.)

T/r	Shahar va viloyatlar	Maydoni km <sup>2</sup>	Umumiy	SO <sub>2</sub>	Azot oksidlari	Uglerod oksidi	Uglevod orodlar
1.	Toshkent	15,6	165	54	17,2	61,0	10,7
2.	Mirzacho‘l	25,6	14,2	2,39	3,75	5,48	1,02
3.	Farg‘ona	19,3	72,3	8,04	4,30	31,8	16,2
4.	Samarqand	24,5	10,0	1,07	0,51	6,0	0,95
5.	Qashqadaryo	28,4	29,5	18,7	0,81	6,78	1,39
6.	Buxora Qizilqum	143,2	3,7	0,45	0,47	1,21	0,23
7.	Quy	170,0	1,2	0,02	0,10	0,56	0,09

# “O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI”

Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi

	Amudaryo						
8.	Surxandaryo	20,8	2,76	0,01	0,02	0,24	0,08

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, atmosfera havosi inson hayoti, qolaversa tabiatdagi muvozanat uchun kata ahamiyat kasb etadi. Shu bois atmosfera havosini muhofaza qilish chora-tadbirlaridan ustivori bu ekologik ta’lim-tarbiya ishlarini olib borishdir, chunki atmosfera havosining ifloslanishi natijasida sodir bo’ladigan o’zgarishlarni to’liq anglay olgan inson to’g’ri va atroflicha xulosa chiqara oladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. P.Baratov. Tabiatni muhofaza qilish. Toshkent 1991y.
2. A.To‘xtaev, A.Xamidov. Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish. T. O‘qituvchi, 1997 y.
3. Раджапов М.Я., Ешпанова Г., Матмуратов Е.Р. Локальные геоэкологические проблемы и их последствия. – Международный научно-практический журнал «Экономика и социум». 03(118) 2024.
4. Утепова Г. Б., Махсетбаев Н. Б. НАУЧНОЕ ОПИСАНИЕ ДЛЯ СТРАН С ДОЛГОЖИТЕЛЯМИ //SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2025. – Т. 3. – №. 33. – С. 22-25.
5. Eshimbetov U. et al. Territorial composition of agriculture in the Aral Sea Region of Uzbekistan //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – Т. 510. – С. 01040.
6. Ешимбетов У., Наурузбаева Г., Дальжанов К. Методические вопросы анализа и прогнозирования индустриального развития региона с учетом рационального использования минеральных ресурсов //Экономика и социум. – 2020. – №. 12 (79). – С. 532-540.
7. Ешимбетов У. Х. Формирование точек производственного роста на базе минерально-сырьевых ресурсов как совершенствование территориальной организации промышленности региона (на примере Республики Каракалпакстан) //Экономика и предпринимательство. – 2017. – №. 11. – С. 232-237.
8. Раджапов М. Я., Умаров Е. К., Искендеров А. Б. Қорақалпоғистон худудининг географик ўрганилиш тарихи //Ўзбекистон география жамияти ахбороти. – Т. 22. – С. 74-76.
9. Radjarov M. et al. Qoraqalpogiston hududining tabiati va tabiiy boyliklarining geografik organilish tarixi //in Library. – 2021. – Т. 21. – №. 4. – С. 56-57.
10. Искендеров А. Б., Абдираманов Б. С. У. ЖАНУБИЙ ОРОЛБЎЙИДАГИ ТАБИИЙ ГАЗ КОНЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ МАСАЛАЛАРИ //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 10. – С. 335-339.
11. Умаров, Е. К., Искендеров, А. Б., Раджапов, М. Я., & Айтуганова, А. К. Қорақалпоғистон Республикаси халқ хўжалигини худудий такомиллаштириш муаммолари. *Ўзбекистон География жамияти ахбороти*, 22, 57-59.